



TARIX DARSLARINI TASHKIL ETISHDA FANLARARO YONDASHUV DAN FOYDALANISH

Qaxorov Akmaljon Baxtiyorjon o'g'li,
Andijon tumani 10-DIMI tarix fani o'qituvchisi.

MAQOLA HAQIDA
Qabul qilindi: 9-fevral 2026-yil
Tasdiqlandi: 11-fevral 2026-yil
Jurnal soni: 17-B
Maqola raqami: 23
DOI: <https://doi.org/10.54613/ku.v17i.1452>
KALIT SO'ZLAR/ КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА/ KEYWORDS

Tarix o'qitish metodikasi, psixologiya, yordamchi tarix fanlari, maxsus tarixiy fanlar, xronologiya, numizmatika, tarixiy geografiya, tarixiy kartografiya, tarixiy manbalar, atlas, tarixiy karta.

ANNOTATSIYA

Maqolada tarix fanini o'qitish jarayonining nazariy-metodik asoslari, tarix o'qitish metodikasining boshqa fanlar bilan uzviy bog'liqligi yoritilgan. Shuningdek, tarixni chuqur va ilmiy asosda anglashda psixologiya, yordamchi va maxsus tarix fanlarining o'zni va ahamiyati tahlil qilingan. Xususan, xronologiya, numizmatika, tarixiy geografiya va tarixiy kartografiya fanlarining shakllanishi, rivojlanish bosqichlari hamda tarixiy tadqiqot va ta'lim jarayonidagi ahamiyati ochib berilgan.

Mazkur maqolada tarix darslarini tashkil etishda fanlararo yondashuvdan foydalanishning nazariy asoslari va amaliy imkoniyatlari tahlil qilinadi. Zamonaviy ta'lim jarayonida tarix fanini boshqa ijtimoiy-gumanitar hamda tabiiy fanlar bilan integratsiya qilish o'quvchilarning keng qamrovli tafakkurini shakllantirish, tarixiy voqea-hodisalarni kompleks anglash va tahlil qilish ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qilishi asoslab beriladi.

Kirish. Tarix fanini o'rganish o'quvchilarda tarixiy ong va tarixiy xotirani shakllantirish orqali ularni ma'naviy, axloqiy va fuqarolik jihatdan tarbiyalashga xizmat qiladi. Tarixiy voqea va jarayonlarni o'rganish jarayonida jamiyat taraqqiyotining qonuniyatlari, insoniyat tajribasi, ijtimoiy munosabatlar evolyutsiyasi anglab yetiladi. Bu esa shaxsda hayotiy pozitsiya va mustahkam dunyoqarashning shakllanishiga zamin yaratadi. Bu masalada Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev "Milliy ma'naviyatimizni rivojlantirish, uni xalqimiz, ayniqsa, yoshlarimiz hayotiga singdirishda ijtimoiy-gumanitar fanlarning ahamiyati juda katta. Afsus, bu fanlar rivoji zamondan ortda qolmoqda. Xususan, biz uchun nihoyatda dolzarb bo'lgan tarix fani ham bundan mustasno emas. Tarixga oid ilmiy tadqiqot ishlari asosan bayonchilik, publitsistik usulda olib borilmoqda. Natijada, o'lis va yaqin o'tmishimizdagi ko'pgina voqealar mohiyati, ularni yuzaga keltirgan omillar va tarixiy qonuniyatlar ochilmasdan qolmoqda. Bir haqiqatni barchamiz chuqur anglab olishimiz zarur: milliy tarixni milliy ruh bilan yaratish kerak. Aks holda, uning tarbiyaviy ta'siri bo'lmaydi. Biz yoshlarimizni tarixdan saboq olish, xulosa chiqarishga o'rgatishimiz, ularni tarix ilmi, tarixiy tafakkur bilan qurollantirishimiz zarur. Buning uchun, avvalo, O'zbekistonda tarix fanini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini ishlab chiqishimiz vaqti-soati keldi, deb o'ylayman"¹ deb ta'kidlaganlari bejis emas. Tarix fani o'tmish tajribasiga tayanib, vatanparvarlik va milliy g'urur tuyg'ularini rivojlantiradi. Ajdodlarimizning siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy merosi bilan tanishish orqali o'quvchilarda Vatanga sadoqat, tarixiy mas'uliyat va milliy o'zlikni anglash hissi kuchayadi. Ayniqsa, milliy davlatchilik tarixi va xalqimizning mustaqillik yo'lidagi kurashlarini o'rganish yosh avlodni yuksak ma'naviy qadriyatlarga yo'naltiradi.

Tarix o'qitish o'quvchilarga tarixiy voqelikni bildirishdan iborat. Shu jihatdan o'quvchilarning tarixiy voqelikni bilish yo'llari tarixiy tadqiqotga o'xshab ketadi². O'quvchilar tarixni o'rganishda olimlar tomonidan ilmiy jihatdan tekshirilib ko'rilgan va tahlil qilib chiqilgan faktlar hamda ilmiy xulosalarga asoslanishi bilan birga, ba'zan faktlarni yanada aniqlash, tarixiy faktlardan umumiy xulosalar chiqarish, umumiy xulosalardan yangi faktlarni o'rganish uchun foydalanishlari mumkin. Biroq, o'quvchilarning tarixni o'rganishi ilmiy tekshirishdan farq qiladi. O'qitish jarayonida o'quvchilar tarix fani va uning ba'zi tadqiqot metodlarini bilib oladilar.

Tarix fani kishilik jamiyatining taraqqiyoti jarayonini o'rganadi. Kishilik jamiyatining taraqqiyot qonunlarini bilish o'tmish va hozirgi zamonda yaxshiroq tushunib olishga, kelajakni oldindan ko'rishga imkon beradi. Demak, tarix fani va tarix o'qitish metodikasi o'zining alohida o'rganish obyekti, vazifasi hamda tadqiqot metodiga ega hisoblanadi³.

Tarix o'qitishda o'quvchilarning yoshi, bilimi, fikrlash qobiliyati va umuman psixik faoliyatini e'tiborga olmasdan turib, ularning o'quv faoliyatiga samarali ta'sir etib bo'lmaydi. Shu sababli metodika psixologiya fani bilan chambarchas bog'liqdir.

Tarix o'qitish jarayonida ustoz va shogirdlar o'rtasida ma'naviy yaqinlik, sog'lom va estetik kayfiyat vujudga keltirishi o'quvchilarning o'quv faoliyatini faollashtiradi, darsning samaradorligini oshiradi.

Psixologiya fani o'quvchilardagi psixik faoliyatning umumiy qonuniyatlarni o'rganadi, metodika esa o'quvchilarning psixik faoliyatini ularning tarixiy materialni o'zlashtirishlari bilan bog'liq bo'lgan tomonlarinigina tadqiq qiladi. Shuningdek, uning o'quvchilardagi psixik faoliyatni tadqiq etish metodlaridan ham qisman foydalanadi. Psixologiya psixik faoliyatning umumiy qonuniyatlarini o'rganadi, metodika esa tarix o'qitishning mazmuni va metodik usullar bilan psixik faoliyat orqali erishiladigan natijalar o'rtasidagi qonuniyatli bog'lanishlarni o'rganadi.

Demak, har ikkala predmetning o'rganadigan obyektlari qisman o'xshash bo'lsa-da, vazifalari boshqa-boshqadir. Shunday qilib, tarix o'qitish metodikasi o'qitishda yaxshi natijalarga erishish, o'quvchilarning tarixiy materialni puxta o'zlashtirishi bilan faoliyati o'rtasidagi qonuniyatli bog'lanishlarni ham o'rganadi, o'quvchilarga ta'lim-tarbiya berishda psixologiya faniga suyanadi, o'quvchilarning psixik faoliyatini o'rganishda psixologik tekshirish metodlaridan foydalanish yo'llarni ham ko'rsatib beradi.

Tarixni anglab yetish uchun asosiy manbalar bilan birga yordamchi tarix fanlarini ham chuqur bilish zarur. Fanlararo yondashuv yordamida ma'lumotlarni yanada mazmunli va qiziqarli qilish mumkin. Tarixni o'rganishda tadqiqotchi qator maxsus va yordamchi tarix fanlaridan keng ko'lamda ma'lumotga ega bo'lishi lozim. Yordamchi tarix fanlari bir-biri bilan bog'liq, bir-birini to'ldirsa-da, ularning har bir sohasining o'ziga xos maqsad va vazifalari, yo'nalishi, usul va uslublari mavjud.

Yordamchi tarix fanlarining har biri alohida soha va tadqiqot predmetiga ega. Masalan: Xronologiya – turli xalqlarda va turli tarixiy davrlarda vaqtni qanday hisoblashganini, ulardagi taqvimlarni bir-birlari bilan qanday bog'lash, taqqoslash mumkinligini, tarixiy voqealarning sanalarini aniqlaydi. Numizmatika – tangalar tarixi bilan shug'ullanadi, geneologiya – shajara va sulolalar tarixini, metrologiya – uzunlik, og'irlik o'lchovlari va o'lchov birliklarini, paleografiya – yozuvlarning paydo bo'lishi va rivojlanishini, toponimika – joy nomlari tarixini, tarixiy geografiya – davlat chegaralari, ularning turli davrlardagi o'zgarishlari, aholisining joylashuvini, sfragistika – muhrlar tarixi bilan shug'ullanadi. Ushbu fanlarning har bir sohasi o'z o'rganish yo'nalishiga ega bo'lsa-da, ular bir-birlari bilan uzviy bog'langan va manbashunoslikni tashkil etadi, ular manbalarni chuqur o'rganishga qaratilgan. Mazkur fanlarni an'anaviy tarzda "Yordamchi tarix fanlari" deb ataymiz. Ular tarixni har tomonlama mukammal o'rganishga xizmat qiladi. Bugungi kunda yuqorida qayd qilingan fanlarning ko'pchiligi alohida mustaqil fanlar darajasida bo'lib, ularga nisbatan "Maxsus tarixiy fanlar" iborasi ko'pchilik tomonidan qabul qilingan. Bu fanlar mazmuniga ko'ra tarixning quyidagi sohalarni – siyosiy, ijtimoiy,

¹ <https://daryo.uz/2021/01/20/shavkat-mirziyoyev-ijtimoiy-gumanitar-fanlar-rivoji-zamondan-ortda-qolmoqda/>

² Sagdullayev A., Ziyoyev H. Tarix fanining metodologiyasi va metodikasi. — Toshkent: Universitet, 2016.

³ Asqarov A., Shirinov T. Tarix o'qitish metodikasi. — Toshkent: O'qituvchi, 2014.

iqtisodiy (savdo-sotiq, tovar pul munosabatlari, soliq, yerning maydoni) madaniyat, san'atni o'rganadi.

Adabiyotlar tahlili. Xronologiya tarixiy fanlarning rivojlanishi natijasida vaqtni o'rganadigan fan sifatida XVI asrda vujudga keldi. Xronologiya ilm sifatida Bobil, Misr, Yunoniston va Rimda shakllandi. O'rta asrlarda xronologiyani rivojlantirishga O'rta Osiyolik olimlar ham o'z hissalari qo'shildilar. Abu Rayhon Beruniyning "Al-osor al-boqiya ani-l-qoliya" (O'tmish xalqlardan qolgan yodgorliklar), "qonuni Mas'udiy" asarlarida xronologiya faniga oid ko'plab ma'lumotlar berilgan. Umar Xayyom kalendari esa mukammallik jihatidan Grigoriy kalendaridan ham ustun turadi. 1935-yilda Oliy o'quv yurtlarida tarix fakultetlari ochilgandan keyin boshqa tarixning yordamchi fanlari qatorida talabalarga xronologiya fani ham o'qitila boshlandi.

Xronologiya – yordamchi tarix fanlaridan biri bo'lib, u vaqt to'g'risidagi fandir. Xronologiya so'zi yunoncha so'z bo'lib, "xronos" – vaqt, "logos" – fan, ya'ni vaqtni o'rganish haqidagi fan deganidir⁴. Xronologiya vaqtlarni o'rganish, hisoblash haqidagi fan sifatida ikki qismga bo'linadi, bular astronomik (matematik) xronologiya va tarixiy xronologiyadir. Astronomik xronologiyani vazifasi – osmon jismlarining siljishi to'g'risidagi aniq astronomik davrlarning vaqtini aytib berishdir.

Tarixiy xronologiya tarixiy taraqqiyot davomida vaqtni hisoblash sistemasini o'rganadi, ularning o'zaro bog'liqligini, vaqtlarni bir hisob sistemasidan ikkinchisiga aylantirish usulini ishlab chiqadi. Tarixiy xronologiya yuqoridagi hisoblash sistemasidan tarixiy vaqtlarni hisoblashda amalda foydalanadi va tarixiy manbalardagi sanalarning aniqligini tarixiy taqil qiladi.

XVI asrda fransuz olimi J. Skaligyer tarixiy xronologiyada tizimlashtirishni amalga oshirdi. U yulian uslubidagi solnomalar tahririni ishlab chiqadi. 1583 yilda J.Skaligyer "Vaqtning hisoblash yuzasidan yangi tadqiqot" nomli asarini e'lon qiladi. 1582-yilda italyan olimlari A. Liliya va I. Danti yangi kalendarini tuzib chiqadi. Bu kalendar tarixda Grigoriy kalendari nomi bilan shuhrat qozonadi. XVII asrda fransuz monaxi D.Petavi ham vaqtni hisoblash yuzasidan tadqiqotlar olib boradi⁵.

XVIII asrga kelib Yevropada xronologiya mustaqil tarixiy fanga aylandi. Bunga qator angliyalik matematik va astronomlar o'z xissasini qo'shdilar. XVIII asr o'rtalarida lord Chesterfildning tashabbusi bilan mamlakatda Grigoriy kalendari qabul qilindi.

Zamonaviy xronologiyani rivojlantirishda E.Meyyer (1904), R.Parkyer (1950) (Misr kalendarlari), M.M.Underxil (1921) hindlarda xronologiya fani, M.Malyer yahudiy kalendarlari, S.G.Morley (1954) mayya xalqlarida vaqt hisobi, X.Mittsman "Rim xronologiyasi" (1957), E. Bikerman "Qadimgi dunyo xronologiyasi" (1966), R. Noygebauer, A. E. Shtamp, V.Grumel kabi tadqiqotchilarning xronologiya usullari va nazariyasiga oid tadqiqotlari katta ahamiyat kasb etdi.

Hozirgi paytda kalendar bu turli mamlakatlarda vaqt hisobi sistemasi bo'lib, uning asosida tabiatning davriy hodisalari, osmon jismlari harakatlari, vaqt oraliklarining hisobi olib boriladi. Kalendar o'rganish tarix fanining vazifasiga kiradi. Tarix fani esa bu o'rinda xronologiya faniga murojaat qiladi. Xronologiya turli hodisalar va hujjat sanalarini tuzishdan iborat vazifani bajaradi. Xronologiyada kalendarlar turlari, ularning paydo bo'lishi bilan bog'liq jarayonlar, ularning miqdoriy ko'rinishlaridan; Qadimgi Sharq davlatlariga xos kalendarlar; ularning ham shakllanish va taraqqiyot bosqichlari va shular bilan birga Qadimgi Yunoniston va Rimga xos kalendarlar tarixi ularning o'zlariga xos xususiyatlari o'rganiladi.

Yordamchi tarix fanlaridan yana biri Numizmatika bo'lib, u – tanga pullar haqidagi fandir. U lotincha "numisma" so'zidan olingan bo'lib, tanga ma'nosini bildiradi. Numizmatlar tangalardagi rasmlarni (tip), yozuvlarni (izohlam), ularning og'irligi, o'lchami, metall sifatini, kim tomonidan zarb etilganligi, qachon va qayerda muomalada bo'lganligi va hokazolarni o'rganadilar⁶. Numizmatik izlanish asosida tangalardan tarix va madaniyat bilan bog'liq bo'lgan ma'lumotlarni maksimal darajada olish vazifasi yotadi. Numizmatika tushunchasiga yana qog'oz pullarni o'rganish ham kiradi va ularni bonistika o'rganadi⁷.

Insoniyat tarixi va madaniyatini o'rganishda tangalarning ahamiyati katta. Xususan, tarix, siyosat, iqtisod, san'atshunoslik, ideologiya, til, me'morchilik, savdo, xalqaro aloqalar bilan bog'liq bo'lgan bir qancha muammolarni yechishda ular muhim rol o'ynaydi. Tangalar bo'lib o'tgan tarixiy voqealarning sanasi, shohlar hukmronligi, davlat chegaralari, kiyimlarini o'rganishda ham katta ahamiyatga ega. qo'lyozmalar asrlar davomida boshqalar tomonidan o'zgartirildilar, qayta ko'chirib yozilar, ayrim so'zlarning ma'nosi asldan uzoqlashib ketardi.

Tangalardagi zarb etilgan yozuvlar esa qanday bo'lsa shundayligicha saqlanib qolaveradi.

Dastlab mashhur tanga kolleksionerlari bo'lgan. Ayniqsa XIV-XV asrlarda Uyg'onish davri mamlakati bo'lgan Italiyada Qadimgi tangalarni yig'ishgan. Jumladan, mashhur shoir Petrarka (1304-1374) va florentsiyalik Kozimo Medichi (1389-1464). 1-numizmat Paduyalik Djovanni Kavini (1499-1570) bo'lib, uning kolleksiyasida ko'plab Qadimgi davr tangalari bo'lgan. 1517 yilda Rimda Fulvioning "Изображения знаменитых людей" ("Mashhur shaxslarning tasviri"), 1553 yilda Lionda Gilom Rullning "Беглый обзор монет наиболее знаменитых лиц, существовавших с сотворения мира, с кратким описанием их жизни и деяний, заимствованным у классиков" asari bo'lib, u tarixiy shaxslar ya'ni Rim hukmdorlarining tasvirlariga qiziqqan xolos. Lekin ulardan qech biri tangalarni o'rganishga ilmiy nuqtai nazaridan yondashmagan.

XVIII asrlarda numizmatika bilan ilmiy shug'ullanuvchi mutaxassislar "Numizmatlar" paydo bo'ldilar. Avstriyaning Vena shahrida imperator Maksimilian I saroyida, Parijda qirol Genrix IV va Lyudovik XIVning kabinetida qirollarning medallari to'plangan. XVIII asrlarda Britaniya muzeyida tangalarning yirik kolleksiyasi yig'ilgan.

Peterburgda Pyotr I muzeyga asos solgan (Uni XVIII asrda Kunstkamera deb atalgan). Unda tangalardan tashqari medallarning ham katta kolleksiyasi saqlangan. Keyin bu kolleksiyalar Ermitajga berildi. Hozirgi kunda Ermitaj tangalar kolleksiyasi bo'yicha Yevropa da 1-o'rinda turadi.

Demak, Yevropaning beshta shaharida – Parij, London, Peterburg, Vena, va Berlinda Qadimgi tangalarning yirik kolleksiyalari jamlangan. O'zbekistonda O'zR FA M.T.Oybek nomli O'zbekiston xalqlari tarixi muzeyining "Numizmatika" bo'limi O'rta Osiyo bo'yicha eng ko'p va eng boy haqiqiy tangalar saqlanadigan va uni o'rganadigan ilm-fan dargohlaridan biridir. Eron shohi Doroning tilla pullari va Yunon shohi keyinchalik ko'p yerlarni egallagan. O'rta Osiyo xalqlari tarixida Makedonskiyning tetradraxmasidan tortib XX asrning boshlarida O'rta Osiyoda zarb qilingan va savdo muomalasida yuritilgan 65 mingdan ko'p turli tuman oltin, kumush va misdan ishlangan pullar saqlanmoqda. Erpan To'xtiyev yozgan "Tangalar tilga kirganda" nomli numizmatika va uning maqsadi, vazifalari yoritilgan⁸.

Metodologiya. Mazkur tadqiqotda tarix darslarini tashkil etishda fanlararo yondashuvdan foydalanish samaradorligini aniqlash maqsadida kompleks ilmiy-metodik yondashuv qo'llanildi. Tarix ta'limi, integrativ ta'lim va fanlararo yondashuvga oid pedagogik, psixologik hamda metodik adabiyotlar o'rganilib, mavzuning ilmiy-nazariy asoslari tahlil qilindi, qiyosiy tahlil usuli orqali an'anaviy tarix darslari bilan fanlararo integratsiya asosida tashkil etilgan darslarning mazmuni va natijalari taqqoslandi. Shuningdek, pedagogik kuzatuv metodidan foydalanilib, o'quv jarayonida fanlararo topshiriqlar va interfaol metodlardan foydalanish jarayoni monitoring qilindi.

Tadqiqotning metodologik asosini ta'limda kompetensiyaviy yondashuv, tizimlilik va uzviylik tamoyillari, shuningdek, fanlararo integratsiya konsepsiyasi tashkil etadi.

Olingan natijalar sifat va miqdoriy tahlil asosida umumlashtirilib, tarix darslarida fanlararo yondashuvni qo'llashning pedagogik samaradorligi haqida xulosalar chiqarildi.

Natijalar. Tarix fanini o'qitishda fanlararo yondashuv va yordamchi tarix fanlaridan foydalanish o'quvchilarda tarixiy voqea va jarayonlarni chuqur tushunish, ularni tahlil qilish va ilmiy xulosalar chiqarish ko'nikmalarini rivojlantiradi, shuningdek, tarixiy manbalarni ilmiy asosda o'rganishga, tarixiy tafakkur va tahliliy fikrlashni shakllantirishga yordam beradi. Bunday yondashuv milliy g'urur, vatanga sadoqat va fuqarolik mas'uliyatini kuchaytiradi, darslarni mazmunli va qiziqarli qiladi hamda o'quvchilarning tarixiy bilimlarini mustahkamlashda muhim pedagogik vosita vazifasini bajaradi. Yana bir muhim yordamchi tarix fanlaridan tarixiy geografiyadir. Mamlakatlarning tarixiy geografiyasini o'rganishda dastlab o'z diqqatini aholini joylashishi tarixiy geografiyasi, xo'jaligining tarixiy geografiyasi, tarixiy-siyosiy geografiyasi, tarixiy iqtisodiy geografiyasiga qaratadi. Tarixiy geografiya sohasida tadqiqot olib borishda, tadqiqotchida ko'plab umumiy xarakterdagi muammolar kelib chiqadi (masalan, mamlakatning iqtisodiy, siyosiy geografiyasidagi tez va keskin mamlakatning hududiy o'zgarishlari). Mamlakatning tarixiy-iqtisodiy va tarixiy-siyosiy geografiyasini o'rganishda tadqiqotchi bu mamlakat haqidagi butun bir tarixiy davr ichidagi ma'lumotni bilishi kerak. Shunga qarab, bu mamlakatning iqtisodiy o'sishi yoki inqirozini anglab yetadi. Yana, iqtisodiy va siyosiy tarixiy geografiya o'tgan

⁴ Rahmonqulova Z. Xronologiya. A.Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, – T., 2006. – 135 b.

⁵ Mansurov O'. va boshqalar Yordamchi tarix fanlari Uslubiy qo'llanma Toshkent 2008

⁶ Ртвеладзе Э.В. Нумизматика Центральной Азии. Вып. VII : сборник статей / под ред. акад. АН Республики Узбекистан. — Ташкент : Изд-во АН РУз, 2004. — С. 70–79.

⁷ Mansurov O'. va boshqalar Yordamchi tarix fanlari Uslubiy qo'llanma Toshkent 2008

⁸ To'xtiyev E. Tangalar tilga kirganda (Numizmatika asoslari). – Toshkent: Fan, 2002.

tarixiy davr moboyinida aholining soni, milliy tarkibi, joylashishi, chegaralari va ichki ma'muriy boshqaruv viloyatlarini ham o'rganadi.

Vazifalaridan eng mushkuli mamlakatning iqtisodiy geografiyasi va uning taraqqiyoti darajasini aniqlaydilar. Shundan keyingina iqtisodiy sohada o'zgarishlarning sur'ati ko'z o'ngimizda nomoyon bo'ladi.

Tarixiy geografiyaning asosiy vazifasi – mamlakatning Qadimiy davrdan to hozirgi davrigacha bo'lgan siyosiy davlat chegaralari Qadimgi shaharlarning o'rnini, shuningdek, ularning turli davrlardagi o'zgarishlari, aholisining joylashuvini o'rganadi. Shuningdek, tarixiy voqealar, janglar va ularning oqibatlarini, bu janglarning davlat chegaralariga ta'sirini ham o'rganadi⁹.

Tarixiy geografiya tarixiy voqea va hodisalar yanada tushunarli bo'lishi uchun ko'shinlarning yo'nalishi kartasi, jang maydonining geografik hududi kabi vazifalarni ham o'z zimmasiga oladi. Yuqoridagi vazifalarning yechimi tarixchiga aniqlik va ilmiylikda yordam beradi.

Demak, tarixiy geografiya – mamlakatlar tarixidagi geografik tomonlarning tarixiy jarayonlarini o'rganadi. Chunki bunday tarixiy geografik tomonlarni bilmasdan turib, mamlakatning rivojlanish bosqichlarini ham o'rganib bo'lmaydi.

Tarixiy geografik tadqiqotlarni olib borishda huddi tarix fani kabi tarixiy manbalarga tayanadi. Alohida qiymatga ega bo'lgan tarixiy - geografik asarlar, turli xujjatlar, Qadimgi xaritalar va h.k.z. Xususan, davlatning chegaralari ko'rsatilgan qonunlar, kelishuvlardir. Ammo bular haqida ma'lumotlar kam. Eng katta ahamiyatga ega bo'lgan arxeologik manbalar – bo'lib, ulardan ayniqsa Qadimgi davrga oid iqtisodiy geografik tadqiqotlarda mamlakatning iqtisodiy ahvoli, xo'jaligi, hunarmandchilik turlari, savdo-sotiq aloqalari kabi ma'lumotlar olish mumkin.

Tarixiy geografiyani o'rganishda – tomonimika va antropologiya ma'lumotlari ham muhimdir. Daryolarning nomlari, ko'llar va boshqalar ham nomlari turli davrlarda turlicha bo'lgan. Antropologik materiallar esa xalqlarning shakllanishida, aralashib ketish jarayonlari sabablarini o'rganadi.

Tarixiy kartografiya – ilmiy sohasining vazifasiga tarixiy karta va atlaslarni tuzish, ularni ishlab chiqish metodlarini o'rganish kiradi. Tarixiy kartografiya tarix fanini o'rganish va o'qitishda katta ahamiyatga ega bo'lib, tarixiy kartalarni monografiya, kitoblari, o'quv qo'llanma, darslik va maqolalarda foydalanadilar. Tarixiy kartalarda mavzu va voqea-hodisalar, jarayonlarning mazmuni, davlatning chegaralari va boshqalar beriladi. Tarixiy kartalarning bir necha turlari bor: tarixiy iqtisodiy, tarixiy etnografik, arxeologik, tarixiy-siyosiy, harbiy-tarixiy, tarixiy-madaniy.

O'quv tarixiy kartalari esa – o'rta, o'rta maxsus va oliy ta'limda foydalaniladi. Kartalar hech qachon eskirmaydi. Eskirganlari ham o'z qadrini yo'qotmaydi. Ammo o'sha davr tarixiga arxeologik izlanishlar yoki boshqa yozma manbalarning topilishi bilan yangi o'zgarishlar kiritilishi mumkin bo'lsada, baribir o'tgan davr tarixshunosligi haqida ham ma'lumot berish vazifasini o'taydi. Ularga qarab tanqidiy fikrni rivojlantirish ham mumkin.

Tarixiy kartalarni yaratish kartografiyaning asosiy vazifasiga kirsam ham doimo tarixiy geografiya bilan chambarchas bog'liqlikda rivojlanadi. 1579-yilda A.Orteliy geografik atlasga tarixiy kartalarni qo'shdi. 1603-yilda esa fransuz kartografi J.B.D.Anvil tomonidan

Qadimiy davrdan to o'zining davrigacha bir necha bo'limli tarixiy kartalar paydo bo'ldi. Orteliy va Anvil kartalarida turli mif va afsonalardan, Bibliyadan olingan syujetlar, turli xalqlarning joylashuvi, chegaralar, harbiy harakatlar, turli sayohatlarning yo'nalishlari va voqea-hodisalar bo'lgan geografik hududlari aks ettirildi.

XX asrda Jahonda harbiy va iqtisodiy kartalarni detallari bilan yaratilishi ularga ilmiy yondashuvni yanada kuchaytirdi. Yana tarixiy kartografiyada xalq xo'jaligi, ishlab chiqarish tarmoqlarini aks ettirishga baqishlangan kartalar ham yaratilgan. Bu sohada rus kartografiyasi katta ilmiy yutuqlarga erishgan. Mustaqillik yillarida o'rta va o'rta maxsus ta'lim uchun mo'ljallangan O'zbekistonning Qadimgi davrdan mustaqillik yillarigacha bo'lgan davri aks etgan tematik kartalar yaratilgan. Ammo oliy o'quv yurtlaridagi ta'lim uchun tematik kartalar yaratilmagan. Ularning kattalashtirilgan shakllari yaratilmagan. Ularni yaratish hozirgi kundagi kartografiyaning dolzarb vazifalaridan hisoblanadi.

Muhokama. Tarix fanini o'qitishda fanlararo yondashuv va yordamchi tarix fanlaridan foydalanish samaradorligi bir nechta jihatdan muhokama qilinishi mumkin. Avvalo, yordamchi fanlar – xronologiya, numizmatika, tarixiy geografiya, tarixiy kartografiya va boshqalar – tarixiy manbalarni chuqur tahlil qilish imkonini beradi, chunki ular har bir voqeaning vaqt, joylashuv, iqtisodiy va madaniy kontekstini aniqlashga yordam beradi. Shu bilan birga, psixologiya faniga asoslanish o'quvchilarning yosh xususiyatlari, fikrlash qobiliyati va tarixiy materialni o'zlashtirish darajasini hisobga olib darslarni samarali tashkil etishga imkon yaratadi. Fanlararo bog'lanish orqali tarixiy voqealarni boshqa sohalar bilan – iqtisod, madaniyat, siyosat, geografiya – bog'lab o'rganish o'quvchilarda tizimli va keng qamrovli tarixiy tafakkurni shakllantiradi. Shu yo'l bilan nafaqat faktlarni yodlash, balki sabab-oqibat munosabatlarini aniqlash, tarixiy xulosalar chiqarish va tanqidiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirish mumkin. Biroq, bunday yondashuvni samarali qo'llash uchun o'qituvchi nafaqat tarixiy bilimga, balki yordamchi fanlar va psixologiya asoslariga ham ega bo'lishi zarur, aks holda darslar yuzaki o'tishi va o'quvchilarning tarixiy tafakkuri yetarlicha rivojlanmasligi mumkin. Shuning uchun fanlararo yondashuv tarixni chuqur va ilmiy asosda o'qitishning ajralmas tarkibiy qismi sifatida muhim ahamiyatga ega.

Xulosa qilib aytganda, tarix o'qitish jarayoni faqat tarixiy faktlarni bayon qilish bilanгина cheklanmay, balki o'quvchilarda tarixiy tafakkur, tahliliy fikrlash va ilmiy xulosa chiqarish ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi. O'zbekiston Respublikasi 1-prezidenti "o'zlikni anglash tarixni bilishdan boshlanadi"¹⁰ deganlari bejiz emas. Tarix fanini o'rganish o'quvchilarda ijtimoiy faollik va fuqarolik ongini shakllantiradi. Tarixiy jarayonlarni sabab-oqibat munosabatida o'rganish orqali jamiyatdagi siyosiy va ijtimoiy hodisalaraga ongli munosabat bildirish ko'nikmasi hosil bo'ladi. Bu esa yoshlarning huquqiy madaniyati va ijtimoiy mas'uliyatini oshiradi. Yordamchi va maxsus tarix fanlari tarixni chuqur o'rganishning ajralmas qismi bo'lib, ular tarixiy manbalarni ilmiy asosda tahlil qilish imkonini beradi. Tarix fanini o'rganish nafaqat ilmiy bilim berish, balki shaxsni har tomonlama barkamol etib tarbiyalashga xizmat qiladigan muhim pedagogik vosita hisoblanadi. Tarixiy ong, milliy g'urur va fuqarolik mas'uliyatini shakllantirishda tarix fanining o'rnini beqiyosdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. <https://daryo.uz/2021/01/20/shavkat-mirziyoyev-ijtimoiy-gumanitar-fanlar-rivoji-zamondan-ortda-qolmoqda/>
2. I.A.Karimov. Tarixiy Xotirasiz kelajak yo'q. T.:Sharq ", 1998 yil
3. Asqarov A., Shirinov T. Tarix o'qitish metodikasi. – Toshkent: O'qituvchi, 2014.
4. Mansurov O. va boshqalar Yordamchi tarix fanlari Uslubiy qo'llanma Toshkent 2008

5. Rahmonqulova Z. Xronologiya. A.Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, – T., 2006. – 135 b.
6. Ртвеладзе Э.В. Нумизматика Центральной Азии. Вып. VII : сборник статей / под ред. акад. АН Республики Узбекистан. — Ташкент : Изд-во АН РУз, 2004. — С. 70–79.
7. Sagdullayev A., Ziyoyev H. Tarix fanining metodologiyasi va metodikasi. – Toshkent: Universitet, 2016.
8. To'xtiyev E. Tangalar tilga kirganda (Numizmatika asoslari). – Toshkent: Fan, 2002.

⁹ Mansurov O. va boshqalar Yordamchi tarix fanlari Uslubiy qo'llanma Toshkent 2008

¹⁰ I.A.Karimov. Tarixiy Xotirasiz kelajak yo'q. T.:Sharq ", 1998 yil